

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 30-oktabr - 5-noyabr N:44 (66585)

## Muassislar:

O'zbekiston matbuot va  
axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq  
ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar  
ijtimoiy harakati,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» hukumatga qarashli  
bo'lmagan xalqaro xayriya  
jamg'armasi.

Hurmatli tahtiriyat xodimlari! Qalbimda bir olam quvonch bilan sizga maktub yo'llayapman. Ushbu dilonamni o'qib, odamlar bizning Kattaqo'rg'on shahrimizda ham oqibatli, diyonatli, savob ishlarga qo'l uradigan insonlar bor ekanligidan mamnun bo'lishsa, ajab emas. «2006-yil - Homiylar va shifokorlar yili» nomini olgan yilimiz bizning oilamiz uchun omadli keldi. O'zlari yemay-yedirgan, kiymay-kiydigan onajonimning shodligini aytmasizmi? Nuqul «Sabr tagi sariq oltin» ekan, bola-jonlarim, deya erta-yu kech yaxshi insonlarni duo qiladilar. Quvonchimiz boisini keyinroq aytaman.

Oilada 5-nafar farzandimiz. Padari buzrukvorim erta olamdan ko'z yumdilar. Oyijonim Zulfiya opa 28 yildan buyon Kattaqo'rg'on shahar shifoxonasining jarrohlik bo'limida hamshira bo'lib ishlaydilar. Yaqin kunlarga ijarada yashaganimiz bois, juda qiynalar edik. Barcha og'irliklarga yelka tutib, ham ota, ham ona o'rnida bizni tarbiyalayotgan onajonim biror daqiqa bo'lsa-da, o'qishimizni nazoratini bo'shshartirmaydilar. Bunga javoban barchamiz «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qib kelyapmiz. Opam tibbiyot bilim yurtini tugatish arafasida. Akam Bobur 8-sinfda o'qish bilan birgalikda musiqa maktabining rubob to'garagiga qatnaydi. Singlim Farangiz 6-sinfda hamda san'at maktabining dutor va skripka to'garagida tahsil oladi. Ukam Ozodjon 4-sinfda o'qiydi. U ham musiqa maktabining doira va yakkaxon ashula to'garagida tahsil oladi.

Ana endi muhim yangilikni eshiting: biz yaqinda yangitdan ta'mirdan chiqqan 2 xonali uyga ko'chib o'tdik. Qanday yaxshi, endi o'z uyimiz bor.

—Opajon, farzandlaringiz bilan baxtli yashang, -deya yangi uyimizning kalitini oyijonimga tutqazgan Kattaqo'rg'on shahar prokurori Mahkam aka Hamidovga chuqur minnatdorchiligimizni eng avvalo sening sahifang orqali bayon qilmoqchimiz, sevimli «Tong yulduzi»m. Birgina bu emas, ular bizga musiqa asboblari ham sovg'a qildilar. Kattaqo'rg'on shahar hokimligi esa oilamiz uchun bir bosh qoramol ajratib berdilar.

Qutlug' sana, ya'ni Ro'zai Ramazon kunlarda, Sizdek bag'ri keng, saxiy va dili pok insonlar ko'payaversin, deymiz.

Ularga bag'ishlab she'r ham yozganman:

Boshimizni siladingiz,  
Mudom ko'ngil so'radingiz.  
Dilingizda saxovat-la,  
Bizga omad tiladingiz.

Yaxshiliklar yo'ldoshingiz,  
Mahalla-ko'y dildoshingiz.  
Hurmat qilar keksa-yu yosh,  
Xam bo'lmasin hech boshingiz.

Shalola ESHBOYEVA,  
Kattaqo'rg'on shahridagi  
Nodirabegim nomli  
6-o'rta maktabning 7-sinf o'quvchisi.




## QULOQ NEGA BURISHQOQ?

Qulog'in ushlab Majid,  
Qilar o'zini so'roq:

—Nega odam qulog'i,  
Tekis emas, burishqoq?

Dazmol qilsa, so'zlarni  
Eshitarmi yaxshiroq?



## MINNATDORMIZ

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, mamlakatimizda turli inshootlar qurila boshladi. Shaharni shahar deysiz-u, hatto qishloqlarni ham tanib bo'lmaydigan darajaga kelib qolishi yosh avlodni quvontirmay iloji yo'q. Biz yoshlar uchun qurilayotgan zamon talablariga javob bera oladigan maktablar, litseylar qurilmoqda. O'quvchilarning kelajakda munosib kasb egasi bo'lish barobarida komil inson bo'lib yetishishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bunday qulayliklar uchun hukumatimizdan, Prezidentimizdan minnatdormiz.

*Mohinabonu ABROROVA,  
Namangan viloyati, Pop tumanidagi P.Parpiyev nomli  
7-o'rtta maktabning 7-sinf o'quvchisi.*

Tumanimizdagi barcha maktablarda tibbiyot, matematika, adabiyot va ekologiya fanlari oyliklarini o'tkazish odat tusiga kirib qolgan. Shu jumladan, Chilonzor tumanidagi 195-, 200-hamda 202-o'rtta umumta'lim maktablarida M.Karimova, A.Nosirova hamda N.Olimova singari maktab shifokorlari boshchiligida o'quvchilarning tibbiy madaniyatini oshirish maqsadida tibbiyot fanlari oyligi e'lon qilindi. Ushbu maktab shifoxonasi bir vaqtning o'zida 30 nafar o'quvchini ko'rikdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lib, barcha kerakli tibbiy asbob anjomlar, o'quv amaliyot xonalari bilan ta'minlangan.

Shu bilan birga sohaga qiziquvchi, kelajakda shifokorlik kasbini tanlagan o'quvchilar uchun tibbiyot to'garaklari ochilgan. To'garak darslari, tabobat va tibbiyot sohalarining uyg'unligida olib boriladi. Endi o'quvchilar maktabga ertaroq kelishmoqda.

Buning sababi, har bir o'quvchi bu yerda tibbiy ko'rikdan o'tadi. Sog'lom, kasallik alomatlari yo'q bo'lgan o'quvchilar darslarga kiritiladi. Bemor bolalarning uylariga o'qituvchilar borib, dars berib kelishadi.

Biror kasallikka duchor bo'lgan o'quvchilarni davolashda tabobatga asosan turli gilyohlardan foydalaniladi. Bu esa inson tanasiga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Maktab shifokorlari to'garak a'zolari o'rtasida ularning qay darajada bilim va malakaga ega bo'lganliklarini sinash maqsadida, bir necha oylardan so'ng bellashuv o'tkazishni rejalashtirishgan. To'garak a'zolari esa, o'z navbatida bellashuvda g'oliblikni qo'lga kiritish uchun tibbiyot ilmini chuqurroq o'rganishga astoydil bel bog'laganlar.

*Bahodir RAHMONOV,  
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi  
40-maktabning 10-sinf o'quvchisi.*

Men 165-maktabning 11-«A» sinfida o'qiyman. Ta'lim maskanimizda «Kamolot» YOIH yetakchisining yordamchisiman. To'g'ri, yetakchi yordamehisi degan bo'lim yoki sardor yo'q, lekin bizni maktabda tashkil qilingan. Maskanimizning «Kamolot» YOIH sardori Xadicha Alixonova barcha ishlarimizda bizga bosh-qosh bo'ladilar. Biz esa o'z navbatida ahil-inoqlik bilan ish yuritamiz. Bilganlarimizni bir-birimizga o'rgatamiz. Maktablararo tadbirlarga borganimizda

o'zaro fikrlashib, yangi-yangi do'stlar orttiramiz. Maskanimizda o'tkazilayotgan «Sen «Kamolot»ni bilasanmi?», «Balli, qizlar!», «Bahri-bayt kechalari», sportga oid turli musobaqalarda «Kamolot»-chilar hamisha bosh-qosh. Kishida qiziqish bo'lsa, tinimsiz yugur-yugurlar ham bilinmas ekan. Sinf rahbarimiz Lola Mo'minova barchamizni yanada tashkilotchiroq bo'lishimizga undaydilar.

Huquq, iqtisod, adabiyot, geografiya, ingliz tili kabi fanlarga qiziqaman. Maktabni tugatib, Aloqa institutiga o'qishga kirmoqchiman. Kelgusida ham albatta «Kamolot» YOIH bilan birga bo'laman.

*Kamola MIRZAYEVA,  
Sobir Rahimov tumanidagi 165-maktabning  
11-«A» sinf o'quvchisi.*



Toshkent shahar, Sirg'ali tumani «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatida faoliyat ko'rsatayotgan o'quvchilar o'tgan hafta «Semurg'» oromgohiga o'tlanishdi. Ular orasida kollejimizning eng iqtidorli, a'lochi talabalaridan biri Shahnoza Jo'rayeva ham bor edi. U tabiatning haqiqiy shaydosi. Shuning uchun ham «Kamolot»da ekologiya bo'yicha ish olib boradi.

Oromgohda seminar qatnashchilari orasida test sinovlari o'tkazilibdi. Unda

10,5 ball to'plab, faxrli birinchi o'rinni

qo'lga kiritgan dugonamiz Shahnozani shahar «Kamolot»ida faoliyat yuritishga taklif qilishibdi. Lekin Shahnoza bu taklif uchun samimiy minnatdorchilik bildiribdi-yu, unga rozi bo'lmabdi. Sababi, tumanda boshlab qo'ygan xayrli ishlarining chala qolishini istamabdi-da.

*–Kollejdagi o'qishlaring a'lo. Jamoat ishlarida ham faolsan. Yana «Kamolot»dagi yutuqlaring... Bularning bariga qanday erishding?–so'rayman dugonamdan.*

*–O'z kuchim, bilimim va «Kamolot»da shakllangan g'ayratim, shijoatim bilan...*

*–Yutuqlaring soni yanada ortaversin, Shahnoza,-deyman dugonamga astoydil havas qilib.*

*Nigora MIRZAYEVA,  
Sirg'ali tibbiyot kollejining  
1-kurs talabasi.*

## KELAJAK AVLODNI O'YLAB



Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umum-milliy dasturiga ko'ra, 2006-yilda Respublikamiz bo'yicha jami 1329ta ta'lim maskanlarida qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Ushbu qurilish-ta'mirlash ishlari uchun Maktab ta'limi jamg'armasi tomonidan 207,7 mlrd. so'm mablag' ajratildi.

\* \* \*

Bolajonlarimiz uchun 333 nomdagi 23904928 nuxxada darsliklar xarid qilindi.

Xalq ta'limi vazirligining 2005-yil 1-avgustdagi «Umumiy o'rtta ta'limning yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standartlari, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari tajriba-sinovlarining birinchi bosqichi natijalari va ularni davom ettirish to'g'risida»gi 191-sonli buyrug'iga asosan 45ta tayanch maktablarida respublika tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi. Ular negizida 2005-2006-o'quv yili davomida 59ta o'quv fanidan takomillashtirilgan Davlat ta'lim standarti modernizatsiya qilingan o'quv dasturlarini tajriba-sinovdan o'tkazishning ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Uning yakuniy natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinflarda 18ta, 5-sinflarda 6ta, 6-sinflarda 28ta, 7-sinflarda 1ta, 8-sinflarda 2ta, 9-sinflarda 4ta o'quv fanidan takomillashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari tasdiqlanib, 2006-2007-o'quv yilidan barcha maktablarda ommaviy ravishda qo'llashga tavsiya qilindi.

\* \* \*

Umumiy o'rtta ta'lim maktablari o'quvchilarining ta'lim tayyorgarligi darajasini aniqlashning reyting tizimi bo'yicha 20ta maktabda tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, Xalq ta'limi vazirligining 152-buyrug'i asosida 2006-2007-o'quv yilidan boshlab maktablarning 1-9-sinflarida yangi tahrirdagi Nizom asosida o'quvchilarni bilimini baholash joriy qilinadi.

\* \* \*

Vazirlar Mahkamasining 275-sonli qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida, 9357ta umumta'lim maktablarida va 391ta maxsus maktab-internatlarida Direktor jamg'armasi tashkil etildi. Mazkur jamg'arma hisobidan ilg'or pedtexnologiya asosida ta'lim berayotgan, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mashg'ulotlarni faol olib borayotgan, ta'lim-tarbiya ishida jonbozlik ko'rsatayotgan o'qituvchilarga qo'shimcha haq to'lanadi.

\* \* \*

Yosh avlodni har tomonlama sog'lom, baquvvat qilib o'stirish borasida Nukus shahrida barpo etilayotgan yopiq sport maneji, Qarshi shahridagi 20 ming o'rinli stadion kabi sport majmualari bilan bir qatorda joriy yilda jami 164ta, jumladan, 21ta yangi sport majmualari barpo etilishi, 108ta maktab sport zallari qurilishi hamda 35ta mavjud sport majmualari rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan.

\* \* \*

Bu yilgi Qarshi shahrida bo'lib o'tgan «Umid nihollari – 2006» sport musobaqalarida 12 tur bo'yicha 2002 nafar sportchilar Respublika final bosqichida ishtirok etishdi. Ushbu musobaqalar 16ta sport inshootlarida, jumladan: 3ta stadion, 1ta suv havzasi va 12ta sport zallarida o'tkazildi. Ta'lim tizimidagi ushbu islohotlar bolajonlarimizning baxt-saodati uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

«Mitti muxbir sayohati»

# «BOLALAR MAHALLASI»NING BOLALARI

–Aziz bolajonlar, «SOS–O‘zbekiston bolalari mahallasi» haqida eshitgandirsiz-a? Bu mahalla o‘n to‘rt oiladan iborat bo‘lib, har birida yetti-sakkiz nafar bolalar onalari, tarbiyachilari ardog‘ida ulg‘ayishmoqda. Bu mahalla haqida yaxshi bilmaganlar ajablanishayotgan bo‘lishsa kerak? Gap shundaki, bu maskanda ot-onalaridan juda erta ajragan bolalarni farzandtalab ayollar o‘z bag‘irlariga olganlar. Ular bir oila bo‘lib yashashmoqda.

Yaqinda men ana shu maskanda bo‘ldim. U yerda ijodkor tengdoshlarimiz anchagina ekan. Ular birma-bir o‘zlarini tanitishdi:

–Salom, men Nargiza Ergasheva, – dedi ulardan biri. –Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 49-maktabning 8-sinfida o‘qiyman. Juda kichikligimda Farg‘onadan ikki opam va ukam bilan birga kelganmiz. Hozirda shirindan-shakar jajji singillarim ham bor. Oyijonimdan ko‘p narsalarni o‘rgandim. Masalan, uy tutishni, ovqat qilishni, mehmon kutishni, sanayversan, anchagina...

Yana, mahallamizdagi to‘garaklarning faol a‘zosiga aylanganman. Biri raqs bo‘lsa, ikkinchisi adabiyot to‘garagimiz. O‘zimizning qizlar dastamiz bor. Turli bayram tadbirlarida «Xalqlar do‘stligi», «Turkiston» saroylaridagi konsertlarda iqtidorimizni namoyish qilib kelyapmiz. Mahallamizga chet ellardan ham juda ko‘plab mehmonlar kelishadi.

Biz ularga ham baletmeysterimiz Tursunoy opadan o‘rgangan raqsalarimizni namoyish etamiz. Adabiyot to‘garagidagi ishlarim ham yomon emas. Bir qancha she‘rlar yozib qo‘ydim. Aytishlaricha, agar harakat qilsam, mendan yaxshigina ijodkor chiqarkan. Hozir she‘rlarimdan birini e‘tiboringizga havola qilmoqchiman:

## MASKANIM

Shu yerda ulg‘ayapman,  
Tilim, dilim yagona.  
O‘z oilam, onam bor,  
Bu yerda yo‘q begona.

Hamma-hamma qadrdon,  
O‘rtada suv, tuz-u non.  
Orzularimga oshyon,  
Mahallamiz–jonajon!

Respublika «Kelajak tongi» studiyasiga yosh suxandonlik tanloviga qatnashgan edim. Ovozim, talaffuzim to‘g‘ri keldi. Mana, bir yildan beri eshittirishlar matnlarini o‘qishda ishtirok etib turibman...

–Men esa Barno Lutfullayevaman, –deya o‘zini tanishtirdi uning dugonasi. –Xuddi Nargizadek mening ham qiziqadigan hunarlarim anchagina. Ularni o‘rganishimiz uchun mahallamizda hamma sharoit yaratilgan. Bizda yana shaxmat, kurash, futbol to‘garaklari ham bor. Men shaxmat to‘garagiga qatnashaman. Baxtli bolalar ijodiyoti markazida esa ingliz tili bilan kompyuter saboqlarini o‘rganyapmiz. Yoz davomida go‘zallik salonidagi ustalariga shogird

tushib, soch turmaklash va pardozlashni ham qisman o‘rganib oldim.

Xayolingizdan, «Iye, bular yozda ham dam olishmaydimi?» degan savol o‘tayotgan bo‘lsa kerak-a? Uka-singillarim tog‘ yonbag‘irlaridagi maxsus sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam olib qaytishdi.



Men ham har yili o‘sha yerlarda dam olardim. Endi biroz katta bo‘lib qoldim-da.

Bo‘sh vaqtimdan foydalanib, birorta kasb o‘rganishga ahd qilgandim. Hozir mahallamizdagi qizlar-u onalarimizning sochlarini chiroyli qilib turmaklab qo‘ysam, o‘zim zavqlanib ketayapman. Ha, aytgandek, adabiyot to‘garagiga ham qatnashaman. Bunda biz ifodali o‘qishni ham mashq qilamiz.

21-oktabr kuni maktabimizda o‘tkazilgan «She‘rxonlik kechasi»ning ifodali she‘r o‘qish musobaqasida yuqori o‘rinlardan birini egalladim...

–Men oyijonim haqlarida juda ko‘p gapirgim kelayapti-da, – deya suhbatimizga qo‘shildi yana bir qiz. –Oyim Gulbahor To‘raxo‘jayeva, men esa Umida Mavlonova bo‘laman. Yetti nafar farzandning to‘ng‘ichiman. 2002-yilning aprelida bu mahallaga kelganman.

Meni birinchi bo‘lib issiq bag‘irlariga bosgan inson –Gulbahor oyijonim bo‘ladilar. Bugun ular bilan chin dildan faxrlanaman. Sababi, yaqinda mustaqillik bayrami arafasida ularga «Shuhrat» medali berildi. Bu oyijonimning bebaho xizmatlari uchun o‘ziga xos unvondir.

Uka-singillarim Kirill Vinikov, Dima Vinikov, Ruslan Filyakin, Natasha Malinina (oyim Shirin deydilar), Natasha Sharipova (bu singlimni esa Laylo deb ataymiz), Hamidjon Madayupovlar bilan millatimiz turlicha. Lekin, oyijonimni hammamiz birdek yaxshi ko‘ramiz.

–Mahallamizdagi ikki onaga «Shuhrat» medali berildi. Biri Umidaning oyisi bo‘lsa, ikkinchisi mening onam – Sanobar opa Boltayeva, –deya so‘z boshladi Malohat Azimova. –Menimcha, bizning onalarimiz har qanday unvonlarga munosibdirlar. Chunki, bizni o‘z farzandlaridek ko‘rib, bir oilaga jamlab, mehr ko‘rsatib ulg‘aytirishmoqda. O‘qish, ishlarmizga bosh, kelajak rejalarimizga oshno, maslahatgo‘y... Biz ham yaxshi o‘qishimiz, xulqimiz bilan ularga rahmat eshittirib, xursand qilishga intilamiz.

–Ha, Malohat opamning

gaplari to‘g‘ri, – deya uning gapini to‘ldirdi Zarnigor Soipova. –5-sinfda o‘qiyman. Mahallamizdagi «Mohir qo‘llar» to‘garagiga qatnashib, turli yumshoq o‘yinchoqlar, gullar, tuvakchalar, gilamchalar-u taqinchoqlar yasashni o‘rganayapman. Ularni tezroq yasashga va oyijonimga ko‘rsatishga doim shoshilaman. Bu mehnatlarimdan xursand bo‘lgan onamning chehralarini ko‘rishning o‘zi menga zavq bag‘ishlaydi.

–Men Zarina Mahmudova, 8-sinfda o‘qiyapman, – dedi yana bir suhbatdoshim. –Mening ham onam haqida aytadigan iliq gaplarim anchagina... Boshimizni silagan, hammamizga birdek mehr berib, ulg‘aytirayotgan onajonimni hammamiz yaxshi ko‘ramiz. Mahallamizda hamma bir-biriga do‘st, inoq. Bu xislat onalarimizdan bizga ibratdir. Birortamizning tobimiz qochsa, darrov hammamiz yordamga shoshamiz. Yutuqlarimizdan birdek sevinamiz... Sen uchun qayg‘uradigan insonlarning ko‘pligini ko‘rib, his qilib yashashning o‘zi bir BAXT.

Orzularim bir dunyo. Ularni amalga oshirish uchun bizda hamma imkoniyat bor. Ijodiyot markazimizga qatnab kompyuter, ingliz tili saboqlarini o‘rganyapman. Munchoq bilan bezashni, chevarchilikni ham yaxshi ko‘raman. Adabiyot to‘garagida esa yozgan mashqlarimizni bir-birimizga o‘qib berib, bahsmunozaralar o‘tkazamiz. Xuddi muxbirlardek bir-birimizdan intervyular olamiz. Shu yili «Gulxan» jurnali, «Klass», «Sog‘lom avlod» hamda «Tong yulduzi» gatezatalari muharririyatida bo‘lib, ish jarayonlari bilan tanishdik. Sevimli shoirimiz Abdulla Oripov bilan uchrashib, suhbatlashdik. Ular har birimizning ijod daftarimizga dastxat yozib berdilar... Bundan tashqari, Respublika bolalar kutubxonasi hamda A.Navoiy nomli respublika kutubxonalariga ham tez-tez borib turamiz. Respublika radiosiga qilgan sayohatimizdan olgan taassurotlarimiz ham o‘ziga xosdir...

Kelajakda jurnalist yoki dizayner bo‘lgim keladi. Hali bir qarorga kelganimcha yo‘q. Muhimi, onamizning umidlarini oqlab, mahallamiz sha‘nini yuksakka ko‘taradigan INSON bo‘lishga harakat qilaman.

Darvoqe, adabiyot to‘garagimizda «Mahallamiz qo‘shig‘i»ni yozgandik. Uning satrlarida dilimizdagi hamma niyatlarimiz mujassam...

Dunyoda go‘shalar ko‘p,  
Ba‘zan tor, ba‘zan to‘kis.  
Ammo bizning maskanda,  
Ko‘ngil keng, mehr tengsiz.  
Yoshimiz turli-tuman,  
Opa-ukamiz hamdam.  
Onamiz quchog‘ida,  
O‘syapmiz baxt-u bekam.  
Sarhad bilmas savobga,  
Har birimiz dahldor.  
Muruvvatli ibratdan,  
Ko‘ngilda ezgulik yor.  
Dunyoda go‘shalar ko‘p,  
Ba‘zan tor, ba‘zan to‘kis.  
Ammo bizning maskanda,  
Ko‘ngil keng, mehr tengsiz...

Mitti muxbir suhbatlarini oqqa ko‘chiruvchi  
Saida ZOKIROVA.

## So'z – «Nihol – 2006» sovrindoriga

Maqom, milliy yo'nalishdagi topilmas kerak-a? Bugungi kunda hatto qo'shiqlarimizni. Men ham mana shu Hatto faxrlanaman. Chunki bu yil ijrochilik yo'nalishi bo'yicha eng yosh Respublika miqyosida bo'ladigan doim cho'chirdim. Hatto g'olib bo'lish pul to'lash kerak deganlar ham bo'ldi. boshqarmasi saralash bosqich-keyin Toshkentga da o'n besh nafardan birga mashq qila bosh-birimizni raqobatchi hammamiz turli yo'na-kanimiz. Men «Nihol»-mahzunligi bois, O'zbe-Abduhoshim Ismoilov xalq yor»ga kuy bastalab berdi. qo'shiq yordamida sovrin-

Men san'atga 3 yoshim-da ham nuqul mumtoz 2004-yillarda 3-son bolalar musiqa maktabida qo'shiqchilik bo'yicha o'qidim. Musiqadan ustozim Akmal Anvarov saboq berdilar. Viloyat bo'yicha bo'lgan qator tanlovlarda faxrli o'rinlarni egalladim. Hozirda men tahsil olayotgan kollej rahbari Yusuf G'afurbekov, ustozlarim Sharofiddin Ismoilov, Tohirjon Qahhorov, Isfandiyor Botirov va boshqalardan minnatdorman. Ular meni shunday tanlovlarga tavsiya qilishmaganida, bunday yutuqlar ham bo'lmas edi.

**Gulruh OTAQULOVA,**  
Farg'ona san'at kollejining 3-bosqich talabasi.

qo'shiqlarni sevib tinglamaydiganlar xorijliklar ham berilib tinglaydi mumtoz yo'lni tanlaganimdan afsuslanmayman. «Nihol – 2006» tanlovida an'anaviy sovrindori bo'ldim. To'g'risini aytsam, b u n d a y tanlovda qatnashishdan uchun katta miqdorda Farg'ona madaniyat laridan o'tganimdan chaqirishdi. Bu yer-iborat yigit-qizlar ladik. Avvaliga birdeb o'yladik. Keyin bilsak, lish bo'yicha g'olib ishtirokchilarga taqdim etgan qo'shig'im kistonda xizmat ko'rsatgan artist so'zi bo'lmish «Kelmading, Besh kunda tayyor bo'lgan dor bo'ldim.

dan qiziqaman. Bolaligim-qo'shiqlarni eshitardim. 2000-2004-yillarda 3-son bolalar musiqa maktabida qo'shiqchilik bo'yicha o'qidim. Musiqadan ustozim Akmal Anvarov saboq berdilar. Viloyat bo'yicha bo'lgan qator tanlovlarda faxrli o'rinlarni egalladim. Hozirda men tahsil olayotgan kollej rahbari Yusuf G'afurbekov, ustozlarim Sharofiddin Ismoilov, Tohirjon Qahhorov, Isfandiyor Botirov va boshqalardan minnatdorman. Ular meni shunday tanlovlarga tavsiya qilishmaganida, bunday yutuqlar ham bo'lmas edi.

**Gulruh OTAQULOVA,**  
Farg'ona san'at kollejining 3-bosqich talabasi.

## AJOYIB KECHA BO'LDI

Tadbir

Poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan Alisher Navoiy nomidagi 202-maktabda ham «Til bayrami»ga bag'ishlangan kecha bo'lib o'tdi. Bayram dasturini maktab direktori Muhayyo Said-ikromova ochib berdi. 7- «A» sinf o'quvchilari Murod Otaxonov va Nilufar Berdinovalar xora-zmcha raqsga tushdilar. «Nafosat» ko'rik-tanlovi-ning g'olibi, shu sinf o'quvchisi Nasiba Mahkamova esa ajoyib she'rlaridan namunalar o'qidi. Maktab va til muammolariga bag'ishlangan «Kelinlar qo'zg'oloni» nomli sahna ko'rinishi tomoshabinlarda yaxshi kayfiyat uyg'otdi. O'zbek tiliga rus tilini aralashtirib gapiradiganlar qattiq tanqidiy ko'rinishda namoyish etildi. Ushbu kechani tayyorlashda ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini Husniddin Normatov, ona tili va adabiyot o'qituvchisi Dilfuza Sharipova, ma'naviyat va ma'rifat ishlar bo'yicha direktor muovini Nargiza G'aniyeva va boshqalar o'quvchilarga katta yordam berishdi.

Botir RAMAZONOV.



Qadim zamonlarda emas, hozirgi kunlarda doimo hayotdan nolib yuruvchi bir odam bor edi. Kunlarning birida odatdagiday: –Eh, hayot, hayot, - deya xo'rsinib qo'ydi.

Dadasining xo'rsinishini eshitgan o'g'li:

–Dada, hayot degani nima o'zi? - deb so'radi.

–Katta bo'lganingda bilib olasan, - dedi otasi.

Lekin bolakay savoliga to'la javob olishni istardi. Shundan keyin u o'zicha bu savolga javob axtara boshladi.

Ertasi kuni ko'chada ketayotib, velosiped mingan ikki bolaga shu savolini berdi.

–Hayot bu – toza

o l m o q ,

havodan nafas

go'zalliklardan

bahra olmoq, chiroyli

joylarga sayohat qilmoq, - deb

javob berishdi bolalar.

Bola yana yo'l yurib, bir ishchiga yo'liqdi:

–Hayot nimaligini bilasizmi? - deb so'radi

undan.

–Hayot ishlamoqdir, - javob berdi u.

Boshqa bir kuni bolakay dehqonga

ro'para bo'ldi, shunda u yerdan bir siqim

tuproq oldi-da:

–Hayot shu-da, uning bag'riga urug'

qadaladi, vaqti kelgach, hosildan

bahramand bo'lamiz, - dedi. Bola

chaqaloq ko'targan onaga duch keldi.

Onadan:

–Hayot ona suti bilan ulg'ayayotgan

boladir, - degan javobni oldi.

Shu savol bilan o'qituvchisiga yuzlandi:

–Hayot o'rganmoqdir, qo'zim, - deya gap boshladi ustози. - O'qishni,

o'rganishni istagan odamga hamma narsa qiziqarli tuyuladi. Inson har qanday sharoitda, hamma joyda o'rganadi, seva oladi. Hayot mana shudir, bo'tam, -dedi.

Bola endi hayot nimaligini bilardi. O'zi, atrofdagilari, yerdagi toshdan ko'kdagi bulutlarga qadar hamma narsa, hayot qanchalar buyuk...

Hayot bir necha omillar birlashmasidan vujudga kelgandi. Osmon, tuproq, yer, suv... Hayotni anglash uchun insonni o'z atrofiga yaxshilab qarashi yetarli edi. Bola bularni anglagani uchun juda-juda baxtli edi. Xo'sh, aziz bolalar, sizningcha Hayot nima?

**Nazokat BAHODIR qizi,**  
O'zbekiston Milliy Universitetining o'zbek filologiyasi fakulteti, turkiy tillar bo'limining 2-kurs talabasi.

RANGLAR JILOSIDAN  
BAHRA OLAMAN

Maftuna Rahmon-  
bekova Alisher Navoiy

nomli Respublika nafis san'at litseyining 3-sinfida tahsil oladi. Har narsaga qiziquvchan bu tengdoshingiz turli rasmlar chizishga qiziqadi. Uning tuxum po'choqlari va qo-g'oz qirqimlari yo-pishtirilgan rasmlari xuddi jonlidek. Ko'rgan kishining ko'zi quvonadi.

Keling bola-jonlar, so'lim tabiatning mo'jizakor jilolarini ifodalashga astoydil urina-yotgan Maftuna-xonga birgalashib oq yo'l tilaymiz.

## Rossiyadan xat

O'zbekiston o'zining osmon ostidagi muzey – Xiva, non shahri Toshkent, go'zal Samarqand-u ko'hna Buxorosi bilan olamga mashhur. Har safar tahririyatimizga xat kelganida, shunday yurtda yashayotganimizdan faxrlanib ketamiz. Mana, Sankt-Peterburg shahridan buyurtma xat: Xatni belorussiyalik Eduard Yeromov yozibdi. Yangi chiqqan kitobidan bizga yuborib, bir vaqtlar yurtimizda yashaganini, endilikda bu go'zal makonga she'rlar bag'ishlayotganini bildiribdi. Xatda shunday jumlar bor:

«Salom o'zbekistonlik bolajonlar! Sizlarga juda havasim keladi. Kimdir yurtingizning go'zal vodiylarida, kimdir vohalariyu, kimdir tog'liklari yoki shaharlarida yashar. Qayerida yashamasin, serquyosh yurtingizning ob-havosidan bahra olib, baxtiyor yashamoqda. Mening ham navqiron yoshligim O'zbekistonda o'tgan. Toshkentga birinchi marta 17 yoshimda kelganman va hayratda qolganman. Chunki Belorussiya hali oppoq qorga burkangan.

O'zbekiston bog'larida esa daraxtlar chamandek gullab yotardi. Qanday mo'jiza! Ayniqsa, yurtingizda non ko'pligi, xalqingizning bag'ri kengligi, mehmondo'stligi meni juda qoyil qoldirgan.

## YOMON KO'ZLARDAN, YOLG'ON SO'ZLARDAN...

Men Toshkentda o'qidim. Hayotimning eng go'zal onlari shu yurtda o'tdi, qancha do'stlar orttirdim. Vatanga, yaqinlarga birinchi muhabbat kabi go'zal tuyg'ularni shu yerda his qildim.

Aziz bolajonlar, men hozir 67 yoshdaman. Harbiy bo'lib, Turkmaniston, Qozog'iston, Kavkaz o'lkalari va Rossiya yashab ishladim. O'zbekistonni hech qachon unutmayman. Yuragimning bir bo'lagi bo'lgan she'rlarimni sizlarga yuborarkanman, iltimosim, go'zal yurtin-



gizni yomon ko'zlardan, yolg'on so'zlardan asrang.

Eduard YEROMOV».

Tahririyatdan: Biz xat muallifiga minnatdorchilik bildirib, shoirning ona yurtimizga atalgan she'rini rus tilida chop etmoqdamiz. Chunki rus tili – do'st tili. Siz she'rni o'qib, yodlab olishingizga ishonamiz.

### НА САЛАРЕ

Ташкент. Экзотика. Прекрасно.  
Уже привычен летний зной.  
Но вот опять ночами властно  
Гудки зовут меня домой.

Волнуют память, сердце гложут  
Воспоминанья прежних дней;  
И став душой на миг моложе,  
Я вновь в кругу своих друзей.

Но стороной идут вогонь-  
Надежды гаснут, как огни,  
На мне – курсантские погонь,  
И я – в отрыве от родных.

### Sizning kitob javoningizga

Aziz kitobsevar bolajonlar, sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ni tabarruk dargoh deyishlarini bilasiz-a? Sababi, juda ko'plab shoir va yozuvchilarimiz aynan shu tahririyatda mehnat qilib, qalami charxlangan, elga tanilgan.

Taniqli shoirimiz Turob Niyoz dargohda kamol topgan. Uning ilk she'riy mashqlari aynan yuzini ko'rgan».

Turob akangiz nafaqat ajoyib yaxshigina ustoz hamdirlar. Bir necha gazeta qoshidagi yosh qalamkashlar ham mana shu ijodkorlardan biri. Uning shu gazetada «dunyo ijodkor, balki yillar davomida to'garagini boshqarib, talaygina shogirdlar ham yetishtirganlar.

### O'ZBEKISTON MAKTABLARI

Boqib to'yimas ko'zlarimiz,  
Yorishadi yuzlarimiz,  
Dildan toshar so'zlarimiz,  
Mustaqillik oftoblari -  
O'zbekiston maktablari.

Ta'lim olsa go'zal joyda,  
O'quvchiga faqat foyda,  
Ezgulikka bo'lar shaydo,  
Bu muhabbat sabablari -  
O'zbekiston maktablari.

Yodga tushar yoshlik chog'im,  
G'arib edi maktab-bog'im,  
Bugun ko'kka yetib ohim:  
Yo'qdir qiyos, taraflari -  
O'zbekiston maktablari.

E'tiborda bo'lsa maktab,  
Yuksaladi ilm-u adab,  
Borajakmiz oldga qarab,  
Bugun, erta talablari -  
O'zbekiston maktablari.

Bu tarixda bo'lgan emas,  
Xayolga ham kelgan emas,  
Butun dunyo qilgay havas,  
Yurtim gavhar, sadaflari -  
O'zbekiston maktablari.



Niyozni sevgi, muhabbat kuychisi ham deyishimiz mumkin. Sababi, Vatanga, xalqiga, otonaga, yorga muhabbat tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan she'rlari juda ko'p. Ular jamlanib, bir necha kitob bo'ldi.

Yaqinda shoir akangizning yana bir yangi – «Muhabbat gullari» nomli she'riy to'plami nashrdan chiqdi.

Sahifalaridan siz bolajonlarga atalgan talaygina she'rlar ham o'rin olgan bu kitob javoningizdan munosib joy topadi, degan umiddamiz.

### BIRINCHI O'QITUVCHIM

Igna bilan quduq qazganday,  
Cho'l bag'rida yaratganday bog',  
Xanjar bilan toshga yozganday,  
Tuproq bilan ko'targanday tog',  
Zahmat chekar har soat, har kun,  
Toliqishni, minnatni bilmas.  
U yashaydi kelajak uchun,  
Irodasi po'lat, bukilmas...

Turob NIYOZ.

## G'URURIMSAN, POYTAHTIM!

Tahririyatga kelib, hali ish bosh-

lamasimizdan oq hamkasbimiz bizni bir kishi yo'qlab kelganini aytib qoldi. U bilan izmaiz chehrasidan nur yog'ilib turgan nuroniy otaxon kirib keldilar. O'zlarini Hasanboy ota Eshonqulov deya tanishtirib, yurtimizga tinchlik, xalqimizga omonlik, dasturxonlarimizga to'kinlik tilab, duoga qo'l ochdilar. Bu yil 83 bahorni qarshilagan otaxon Jizzax viloyatidan kelibdilar. Ular bilan qilgan suhbatimiz davomida 17 yoshli yigitchalik chog'larida poytaxtimiz ko'rki bo'lmish Alisher Navoiy nomli Davlat opera va balet teatri binosi qurilishida qatnashganliklari, urush yillarida chekkan mashaqqatlari, keyinchalik bog'bon bo'lib, qadr topganlari, ayni kunlarda 7 nafar farzand, 35 nevara va 8 evaraning ardog'ida yashayotganliklarini bilib oldik.


–Toshkan-u azimga kelishdan asl maqsadim, –deya so'z boshladilar otaxon biroz hijolat chekkandek bo'lib, – keksaygan chog'imda uni yana bir bor aylanib chiqsam, degandim. Axir shaharning bino bo'lishida ozmi-ko'pmi, hissam bor. Oynayi jahon orqali kundan-kun chiroy ochib borayotgan Toshkanni, qad rostlayotgan osmono'par binolarini, maydon-u xiyobonlarini, ko'rkam va keng ko'chalari, ko'priklarini ko'rsam, qalbim quvonchga, faxr va iftixorga to'lib ketadi. Nabiralarimni yonimga chaqirib, qaranglar, qanday jannatmakon yurtda yashaymiz-a, deya quvonib o'tiraman.

Biz sharoit taqozosi bilan o'qiy olmaganmiz. Nevara va evaralarim bilimni, ilmi bo'lishlarini, shunday ajoyib yurtga, dono yurtboshimizga munosib farzand bo'lishlarini xohlayman.

Gazetangiz menga juda yoqdi. Qishloqqa qaytsam, nabiralarimni albatta unga obuna qildiraman...

Saksandan sakrab, to'qson bilan to'qnashish arafasida turgan otaxondagi zavq va ishtiyoqqa havas qilsak arziydi.

YULDUZXON.



## «Salomatlik garovi» tanloviga



Murod juda ajoyib-da. Hech kimning xayoliga kelmagan ishlarni boshlab yuradi.

O'tgan yili bahorda maktabdan shoshib kelib, dabdurdustdan «onajon, ovqatga ishlatingan tuzimiz yodlanganmi?», deb so'radi.

Oyisi hayron bo'lib, «bilmasam» degandi, oshxonaga kirib yarim piyola tuz olib chiqdi. Keyin dori turadigan idishdan yod oldi-da, tuzga uch tomchi tomizdi. Ko'p o'tmay tuz binafsharang bo'lib qoldi.

– Hayriyat, – dedi u sevinib, – yodlangan tuz

ekan. Uning aytishicha, bugun maktablariga shifokor kelib, odam tanasida yod yetishmasligi sababli kelib chiqadigan qalqonsimon bez kasalligi – buzoq haqida tushuntiribdi. Agar

y o d yetish-

masa, bolalar yig'loqi, janjalkash bo'lib qolarkan. Yana, aqli ham yaxshi rivojlanmas ekan. Buning oldini olish uchun esa ovqatga ishlatiladigan osh tuzini yodlangani bo'lsa, kifoya ekan. Shundan buyon oyisi ovqatga xaltasi ustiga «yodlangan» deb yozilgan osh tuzi ishlatadi.

Bugun ham Murodjon o'qishdan keldi-yu, kattakon tandirda yog'li patir yopayotgan onasining yoniga o'tdi.

–Assalomu alaykum, onajon, nonni qanday undan yopayapsiz?

–O'zimiz ekan bug'doyning unidan, bolajonim.

–Unimiz boyitilganmi?

–Qanaqa qilib boyitiladi, otang Bahrom tog'anglarni tegirmonida torttirib kelganini bilasan-ku. «Boyitilgan» degani nimasi ekan?

–Onajon, iltimos, shu bug'doylarni davlat tegirmoniga olib boraylik. O'sha yerda bizning unimizni boyitib berishadi.

–Ko'paytirib berishadi, demoqchimisiz? – tushunmadi onasi.

–Yo'q, boyitish degani, ko'paytirish emas. Bugun o'qituvchimiz «Boyitilgan un» haqida yozma ish

yo'zirdi. Bug'doydagi organizm uchun zarur bo'lgan temir moddasi bug'doy un qilinayotgan paytda yo'qolib ketar ekan. Boyitilgan unda esa ana shu moddalar bo'lar ekan. Ya'ni, tegirmonda bug'doy yanchilayotgan chog'ida unga organizmimiz uchun zarur vitaminlar va temir moddasi qayta qo'shilar ekan. 1-navli boyitilgan undan pishirilgan non, xamir ovqatlarda o'sha vitaminlar to'la saqlanar ekan. Bunday unning qopi ustiga «Sog'lom mahsulot»lar belgisi qo'yilar ekan.

– Qo'y bolam, boshimni qotirma. Shuncha yildan buyon boyitilmagan un yeb, bir yerimiz kamaygani yo'q. Endi bu un yomon ekan. Bizga do'kondan sotiladigan undan olib bering desam, otangning jahli chiqadi. Undan ko'ra, ma, patirdan ye. Hidini qara,



## OYINGIZ NON YOPGANDA...

qanday xushbo'y, – issiq nondan sindirib yonlarida turgan tovadagi suvga botirib, Murodjonga uzatdi oyisi.

– Onajon, hech narsa bo'lmadik, demang. O'zingiz kamqonlar ro'yxatida turasiz-ku. Sal narsaga charchab qolasiz. Ana shu ham organizmingizda temir moddasi yetishmasligidan-da. Agar ro'zg'orda boyitilgan un ishletsak, hammamiz ana shu organizmdagi «yashirin ochlik» degan kasallikdan qutulamiz.

Polvon, aqli bo'lamiz.

– Polvon bo'lganing yaxshi. Lekin bug'doyimizni nima qilamiz?

– Onajon, shu bug'doyni davlat tegirmoniga olib borsak, uni boyitilgan unga aylantirib berishadi-da!

– Shunaqa qilsa ham bo'larkanmi? Unda yaxshi, otang kelsin-chi, birgalashib ko'ndiramiz, – jilmaydi onasi.

– Rahmat, onajon, – Murodjon xursand bo'lib, qo'lidagi issiq nonni og'ziga soldi. Ana shunaqa bizning Murodjon. U sog'liqni har narsadan ustun qo'yadi.

Muhabbat HAMIDOVA.



## BUVIMNING ERTAGI KO'P

Gullola va Nigora,  
«Ertak aytish» o'ynadi.  
So'zga chechan Nigora,  
Ko'p ertakni biladi.

Ayta ketdi ertagin,  
Qator-qator, bir boshdan.  
«Adolat», «Oltin baliq»,  
«Bo'g'irsoq», «Yoritoshdan»...

–Voy-vuy, – dedi Gullola,  
–Shuncha ertak, qara-ya.  
Qanday ichga joylading?  
O'rgat bundoq bizlarga.

Shunda o'ylab Nigora,  
Aytmoq bo'ldi rostini.  
Axir buvisin maqtab,  
Xursand qilsin do'stini.

Buvimning ichi to'la,  
Ertaklarga ol bilib!  
Har kun uxlash oldidan,  
Tinglayman mazza qilib.

Buvimning ertaklari,  
Buloqdek qaynab chiqar.  
Kitoblarga sig'maydi,  
Buvim aytgan ertaklar!

Salomat G'OIYIBNAZAROVA.

Husniya Qodirova qariyb 25 yildan buyon yosh avlodga sidqidildan saboq berib kelmoqda. Ular Narpay tumanidagi 59-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi. O'tgan yillar davomida yuzlab shogirdlarga ta'lim-tarbiya berib, ko'plarning olqishini oldi.

Ustozlari atrofida qaldirg'ochdek tizilgan bolajonlar ta'lim maskanining 3-«A» sinfida o'qishar ekan. Ularning o'zlashtirish davomati ham risoladagidek. Kitoblar-u daftarlarining yuzlari jildlangan, toza, ozoda. Kundaliklarga uy vazifalari to'liq yozilgan. Parta ustida turgan o'quv qurollari esa foydalanish uchun shay turibdi.

–Bolaning ichki dunyosi juda murakkab, – deydi Husniya opa, – buni teran anglagan ustozgina o'z shogirdlarining qalbiga yo'l topa oladi. Ba'zan tushkun holatda, goho uyqusirab o'tilayotgan darslar qulog'iga kirmay qolayotgan paytlar ham bo'ladi. Shunda ziyrak o'qituvchi buni darhol fahmlab, erkin muloqotga chorlashi lozim. Tinimsiz yozdiraverish ham bolani zeriktirib



o'quvchini

## Havas

# BIZNING HUSNIYA OPA

qo'yadi. Amaliy mashg'ulotlar bilan o'tilgan har bir saboq o'quvchi uchun juda foydalidir.

–Mening ismim Farruh, familiyam Ubaydullayev. Sinf sardorining yordam-dars

chisiman. Husniya opamiz bizga qiziqarli o'tadilar. Ayniqsa, matematika, o'qish, musiqa darslarini yaxshi ko'raman. Ustozimiz barcha mavzularni erinmasdan tushuntiradilar. Yuzta savol bersak ham javoblari tayyor. Hech birimizni xafa qilmaydi.

–Ismim Nodira, Husniya opamizni o'z onamizdek hurmat qilamiz. Ular bizga juda mehribon. Aytmoqchi bo'lgan gapimizni yuzko'zimizdan anglab oladilar. Katta bo'lganimda men ham ular kabi o'qituvchi bo'lmoqchiman.

Mendan so'rang, men aytay, deya burro-burro savollarga javob berayotgan bolajonlarning bilag'onligini o'z kasbini mehr bilan ardoqlayotgan muallimaga havasimiz keldi.



ko'rib,

Jamila ERDONOVA.

МАКТУБ БА РЕДАКСИЯ

## МУАЛЛИМАИ МАН — ҚАҲРАМОНИ МАН

Ман дар синфи сеюми мактаби миёнаи рақами 17-уми ба номи Садриддин Айни шаҳри Ангрен мехонам. Мактаби мо дар яке аз ҷойҳои сабзу хушҳавои шаҳр ҷойгир шудааст. Дар он муаллимони меҳрубону мушфиқ кор мекунанд. Аз ҷумла, роҳбари синфи мо — муаллима Доно Мадиерова ҳам хеле инсонӣ меҳрубонанд. Агарчи дар синфи мо зиёда аз 30 нафар талаба таҳсил мекунад, он кас албатта дар давоми ҳар як соат барои ҳар кадоми мо даст мебошад.

Мо ҳоло ҷадвали зарбро азхуд карда истодаем. Муаллима мегӯянд, ки мо набояд “ман ронанда ёки соҳиби ягон касби дигар шуданиам, ин фан барои ман лозим нест” гуфта, ин ё он фанро бад хонем. Барои азхуд кардани ҳар як касб, хоҳ ронандагӣ бошад ва хоҳ президенти мо бояд албатта тамоми фанҳоро нағзака аз худ кунем. Зеро фақат дар ҳама вақт мо инсонӣ комил, яъне ҳаматарафа тараққиёфта, босавод ва доно шуда, ҳам худамон дар ҳаёт муваффақиятнок мешавему ва ҳам ба падару модар ва Ватани ҷоноҷонамон — Ўзбекистон хизмат карда метавонем.

Ба қариби аз фанни “Санъати тасвири” ба мо супориш доданд, ки дар мавзӯи “Қаҳрамони дӯстдоштаи ман” расм кашем. Ман расми муаллима Доно Мадиевара кашидам. Мехостам, ки ҳама муаллимаи мо барин доимо меҳрубон ва ғамхор бошанд. Мо аз муаллимаи худ хеле миннатдорем ва дар оянда ҳаракат мекунем, ки аз рӯи насиҳатҳои ӯ амал кунем.

Манучеҳр АБДУҚОДИРОВ,  
хонандаи мактаби рақами 17-и шаҳри Ангрен.



## МАЛЛИМИ МО

Ҳар субҳи фирӯз  
Хурсанду хандон,  
Ба сӯи мактаб  
Равем шитобон.  
Қабул намояд  
Бо меҳри тоза,  
Дар саҳни мактаб  
Моро ҳамеша.  
Муаллими мо,  
Муаллими мо...

Убайд РАҶАБ.

## ЗАБОН ДОНИ — ҶАҲОН ДОНИ

Ман дастпарвари мактаби № 301 шаҳри Тошканд мебошам. Ҳанӯз дар синфҳои ибтидоӣ ба омӯзиши забони англисӣ шавқ пайдо карда будам. Забондонӣ анъанаи оилавии мост, зеро модарам зиёда аз 30 сол аст, ки ба хонандагон аз забони русӣ дарс мегӯянд.

Дар мактаб бо дастгирии Светлана Борисовна аз нозуқиҳои ин забон баҳра бурдам. Баъди хатми синфи нӯҳ барои боз ҳам амиқтар омӯхтани забонҳои ҷаҳон ба литсейи академии назди Донишгоҳи дипломатия ва иқтисодиёти ҷаҳон дохил шудам. Худро хеле хушбахт ҳисобидам, ки талабаи чунин таълимгоҳи бонуфуз шудам. Ҳаёти фарҳангии литсей ба ман дари маърифатро боз намуд. Солҳои 2003—2006 дар бисёр озмунҳои фанӣ, мусобиқаҳои байналхалқӣ иштирок намудам. Талабаҳои боистеъдоду дар таҳсил фаъол имконияти ба хориҷа рафтандро доштанд. Хушбахтона, ин бахт насиби ман низ шуд ва моҳи сентябри соли гузашта дар қатори 8 нафар талабагони литсей ба штати Монатанаи ИМА сафар кардем. Мақсади мо таҷрибагирӣ, шиносӣ бо ҳаёти ҷавонони хориҷӣ, омӯзиши урфу одат ва фарҳанги онҳо ва дар навбати худ шинос намудани онҳо бо урфу одат ва фарҳанги миллии мо буд. Моро ба оилаҳо тақсим намуданд ва хеле хуб пазиروي карданд. Дар навбати худ мо барояшон барномаҳои консерти тақдим кардем. Сурудҳои халқии «Ҳил-ҳила ёрим», «Омон ёр», «Намагон олмаси», «Андичонли укам», «Алпомиш» ба онҳо хеле хуш омад. Хориҷиён бо шавқу завқ гӯш карда, ҳатто ба рақс мебароманд. Ман ин сафари худро ҳеҷ гоҳ фаромӯш намекунам.

Чунки тамоми муваффақиятҳои худро натиҷаи меҳнати омӯзгорони мӯнису ғамхори худ мешуморам. Ҳоло ки ман донишҷӯи Донишгоҳи дипломатия ва иқтисодиёти ҷаҳон мебошам миннатдории худро ба муаллимонам баён карда, муваффақиятҳои худро натиҷаи меҳнати онҳо мешуморам.

Нигина КАБИРОВА,  
донишҷӯи Донишгоҳи дипломатия  
ва иқтисодиёти ҷаҳон.



## МАЙРАМДЫК КУТТУКТОО

Ардактуу кесипти аркалаган агайлар, эпкиндуу түйшүктү сүрөгөн эжелер. Сиздер биз үчүн түнкү жолдо багыт берган шамчырак өндүү жашообузда түз жолду табышыбызга көмөкчү болгон Күн сымал жарыгыбызсынар. Сиздердин акыл-насаатыңыздар, терең билиминиздер менен биз турмушта өз ордубузду туура таап, келечекте эч кимден кем эмес инсан болуп жетишебиз. Эгемендүү Ўзбекистан Республикабыздын жаш мууну, келечеги болгон бизди арбай-талбай тарбиялап жаткан урматтуу устаттарыбыз биз силерди алдыда келе жаткан. “Мугалимдер жана тарбиячылар” майрамы менен чын жүрөктөн Ўзбекстандык бүткүл окуучулар атынан куттуктаймын. Сиздерге чын ден соолук, кажыбас кайрат жана иштериниздерде чоң-чоң ийгиликтерди каалайм. Бактыбызга дайым өмүр шамындай жанып, мээриминиздер Күн нурундай төгүлүп турсун.

Анарбаев НИЯЗАЛЫ,  
Ташкент облусу, Бөкө району  
34-мектептин 7-класс окуучусу.

## БА НАЗДИ ДУХТУР РАВАД

Бачае ба рафиқаш шахсери  
нишон дод ва гуфт:  
— Дўстам ўро бад мебинад.  
Рафиқаш гуфт:  
— Ин тавр бошад, ў ба назди  
духтур равад. Эҳтимол, чашмонаш  
хира шудаанд.

## НЕ, СЕ ДОНА

Бобо ба наберааш шумурданро ёд  
медихад:  
— Дар халтаи паси дар панҷ себ ҳаст.  
Агар ҳозир яктои онро ту хўри, чанд дона  
себ менад?  
— Се дона.  
— Дурусттар фикр кун. Мумкин чор  
дона монад-а?  
— Не, бобо, се дона менад, чунки  
ман навакак яктаашро хўрда будам.

## МУГАЛИМ — АЛТЫН ЧЫНАРЫМ

Б.Абакиров.

Ак сүтүн берген апамдай,  
Тынч алып эч бир жаталбай.  
Окуучум билип алсын деп,  
Кам көрдүң алыс баралбай.

Баш ийип, таазим кылаарым,  
Мугалим алтын чынарым.  
Сүйүктүү эже-агайым,  
Силерге алкыш айтамын.

Кездешсек мээрим төгөсүн,  
Чын дилден көңүл бөлөсүн.  
Биздерге ак жол тиледин,  
Билимдин берип мөмөсүн.

Жандырып өмүр чырагын,  
Тушунткөн жолдун ыраагын.  
Жылдызга төбөм тийсе да,  
Мугалим — менин сыйлаарым.



## УБАДАМ

Китеп, дептер, калемсап  
Менин окуу куралым.  
Дайыма таза сактоого  
Көнүлүмдү бурамын.

## БИЗДИН КЛАСС

Сулуу жазып тамганы,  
Дайым жакшы баалары.  
Өрнөк болду башкага  
Биздин класс балдары.

Дурдана ДОСМАТОВА,  
Ташкент облусу,  
Бөкө району  
34-мектептин  
4-класс окуучусу.

## МЕЙРАМДАРЫҢЫЗ, ГАЗЕТИМІЗ ҚУТТЫ БОЛСЫН!

Мен «Тонг юлдузи» газетиндегi қазақ тiлiнде шығып жатқан беттi көрiп өте куандым. Осы газет арқылы өзiмнiң ағылшын тiлiнен сабақ беретiн Айтқұл апайымды және Ташкент қаласының Бектемир ауданындағы Тұрар Рысқұлов атындағы 290-мектептiң барша мұғалiмдерiн өтiп кеткен мұғалiмдер күнiмен шын жүректен құттықтаймын.

Сiздерге ұзақ өмiр, зор денсаулық, жанұяларыңызға тыныштық, амандық тiлеймiн. Бiзге ұксаған оқушыларыңыз көбейе берсiн. Оларға сабақ берiп шаршаманыздар.

Сапаргүл ҚҰЛНАЗАРОВА,  
7-класс оқушысы.



**Bilimingni oshir**

–Salomat opa, sizni ayol orzu-armonlarini, qolaversa, onalar qalbini chuqur tadqiq etadigan yozuvchi sifatida yaxshi taniymiz. Yoshlarning nutqi bilan qiziqib qolibsiz?

–Bu ham eng avvalo onalar dardi-da! Qaysi ota-ona farzandini ravon nutqqa ega bo'lgan mukammal shaxs bo'lib yetishishini xohlamaydi deysiz? Esingizdami, qadim yunon notiqi Demosfenning bu yo'lda tortgan mashaqqatlari? Uni nutqing yomon, bukirsan deb biron o'quv yurtiga qabul qilishmaydi. Shunda bo'lg'usi notiq sahardan shomgacha dengiz shovqinida yelkasi-ning bukrisiga qilich tirab mashq qiladi. Oxir-oqibat olamga mashhur voyiz Demosfen bo'lib yetishadi. Endi bugungi yoshlarning hammasi Demosfen bo'lishi shart emas. Ollohga shukur, farzandlarimizning qaddi rassos.

Bilasiz, yozuvchi ham, TV jurnalisti ham har kuni nutq muammosi bilan duch keladi. Nutqdagi nuqsonlar hayotda ham, teleradioboshlovchilik orzusi bilan yashayotgan har bir yoshga TV radio olamida duch keladi. Ana shularni hisobga olib, «VATOSTAR» MCHJ va Milliy akademik teatr bilan qo'shma loyiha asosida o'quv markazi yo'nalishlari tashkil etdik.

–To'g'risini aytсам, Salomat opa, hozir har qadamda o'quv markazlari mavjud. Ularda tayyorlanadigan mutaxassislar haqida ham har xil fikrlar aytishadi. Markazingizni boshqa markazlardan farqi qanday?

–Savollaringiz juda hayotiy. Boshqa markazlar o'z yo'liga, kim yaxshi mutaxassis tayyorlaydi, kim tijorat qiladi. Markazimizning boshqalardan farqi, men shu sohaning mutaxassisiman. O'zbekiston milliy universitetining jurnalistika fakultetini tugatganman. Yana o'n yildan beri televideniya ishlayman. Ya'ni, bu sohadagi kamchilik va nuqsonlarni yaxshi bilaman. Bizdagi mavjud:

1. Teleradioboshlovchilik;
2. Estetik jurnalistika;
3. Yosh aktyorlar;
4. Jahon raqslari: milliy, yevropacha va arabcha raqslar

hamda huquq, iqtisodiyot va san'at yo'nalishidagi Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun tayyorlov kurslari faoliyat ko'rsatmoqda.

–Gazetamiz tahririyatida haftaning har chorshanba kuni yosh muxbirlar to'garagi mashg'uloti o'tkaziladi. To'garak qatnashchilarining ko'pchiligi teleradioboshlovchilik, aktyor yoki o'sha qomatlarini chiroyli qilish uchun raqsga qatnashishga qiziqadi. Mabodo ular

Sizning mashg'ullaringizga qatnashsa, ular ham o'sha 18-20 yoshdagi yigit-qizlar bilan aralashib saboq olishadimi?

–Yo'g'ey. Yuqoridagi teleradioboshlovchi (jurnalist) aktyor, raqs yo'nalishlarini ikkita guruhga ajratganmiz. Kichik guruh 10 yoshdan 15 yoshgacha. Katta guruhda 15 yoshdan 20 yoshgacha shug'ullanishadi.

Guruhlarimiz muallimlari o'zbek televideniyesi rejissyor jurnalistlari va Jahon tillari universiteti, teatr institutidan fan nomzodlari

mashg'ulot o'tishadi. Guruhlarimiz amaliyot o'rnida teleradioko'rsatuv eshittirishlarda va ularning tayyorlanish jarayonida qatnashishadi. O'quv markazining bosh shiori «Ravon nutq, chuqur bilim va go'zal qomat». Biz hatto tayyorlov kursi tinglovchilarining nutqiga, qomatiga e'tibor beramiz. Bizning markazimizda chuqur bilim olib, huquq, gumanitar, san'at va og'ir iqtisodiyot yo'nalishlarida Oliy o'quv yurtlariga o'qishga kiradigan talabalarning o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan intellektual inson bo'lib yetishishini istaymiz.

–Shunday istagi bo'lgan yoshlar qayerga murojaat qilishlari kerak?

–Bizning «VATOSTAR» o'quv markazimiz Toshkent shahrining Navoiy ko'chasidagi Milliy akademik teatri binosida joylashgan. Har kuni soat 14<sup>00</sup> (san'atkorlar kiradigan xizmat eshigi)da teatr binosida sizni kutamiz.

–Suhbatingiz uchun rahmat! Umid qilamizki, bugungi kun yoshlari o'z nutqlari va qaddi-qomatiga befarq qolmaydi.

Begzod MURODOV suhbatlashdi.

Yunusobod tumanidagi 273-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

RAVON NUTQ, CHUQUR BILIM



Bugungi kunda har bir ota-ona farzandlarini chuqur bilimga, buning ustiga ravon nutqli va kelishgan qaddi-qomatga ega bo'lishini xohlaydi. Ana shu masalalar xususida taniqli yozuvchi va «Yoshlar» kanalining «Davr» bosh muharririyati katta muharriri Salomat VAFO bilan suhbatlashdik.

VA GO'ZAL QOMAT

**SHAHRI NASAF**

Shahri Nasaf! Nurli bo'ston,  
Mash'alangda yoritding elim.  
Sen-la bugun g'ururim baland,  
Sen-la bugun ustundir tilim.

Bugun qo'lga qalam oldim-ku,  
Ta'rifingni bitmoq istayman.  
Lek, maqtovgga so'zlar topolmay,  
Qiyosingni ko'kdan izlayman.

Osmonlarda porlagan Qarshim!  
Yuragingning o'zim javhari.  
Senga nazar solibdi Tangrim,  
Ey, ko'zimning nurli gavhari.

Dilimdagi quvonchim o'zing,  
Hayrat ila boqaman senga.  
Istiqoldan o'zgargan husning,  
Shudir bayram elimga, menga!

Xurshid BOBOMUROD,  
Qarshi shahridagi 9-maktabning  
7-sinf o'quvchisi.

**«XO'P-XO'P»CHILAR**

Paytin topib o'ynab-kular,  
Qo'l uchida xizmat qilar.  
Oson yashash yo'lin bilar,  
Xo'p-xo'pchilar, xo'p-xo'pchilar.

Xo'p-xo'p der-u, qilmas biroq,  
Har so'zida noz-u firoq.  
Xumkalla-yu, qoshi baroq,  
Xo'p-xo'pchilar, xo'p-xo'pchilar.

Ustoziga ta'zim etar,  
Yolg'onni ming yamlab yutar.  
Gar ochilib qolsa siri,  
Bezbet xarsangtoshdek qotar,  
Xo'p-xo'pchilar, xo'p-xo'pchilar.

Sitora ISLOMOVA,  
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi  
57-ixtisoslashgan maktab o'quvchisi.

TONG  
yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston

matbuot va axborot

agentligida

022-raqam bilan 2003-

yil 11-dekabrda

ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 17171

Buyurtma N: J 2950

Dizayner va

sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10